

---

## "Obod xonadon - Obod ko'cha - Obod mahalla"

□Mamlakatimiz rahbarining tashabbusiga asosan hududlarda tanlab olingan mahallalarda "Obod xonadon - obod ko'cha - obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ana shunday manzillardan biri - Rishton tumanidagi "Pandigon" mahallasidir.

????"Obod xonadon", "Obod ko'cha", "Obod mahalla" dasturlari ijrosi mahalla hududidagi ko'chalar va xonadonlarni obod qilishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

????Mahalla infratuzilmasini yaxshilash, elektr, suv, yo'l tarmoqlarini namunadagidek ko'rinishga keltirishga barcha birdek kirishgan.

????Mazkur mahallada Prezident Administratsiyasi, sektor rahbarlari, mahalladagi "beshlik" dan iborat ishchi guruh xonadonma-xonadon yurib, aholi muammolarini o'rganish va hal etish ishlarini amalga oshirmoqda.

????Bu kabi bunyodkorlik ishlari mahalla ahlining ko'nglini shod qilib, shukronalik, ertangi yorug' kelajakka ishonch hissini uyg'otmoqda.

2023-10-09 13:57:56